



## BILGA XOQON VA TO'NYUQUQ BITIKTOSHLARIDAGI SO'ZLARNING LEKSIK-MORFOLOGIK TAHLILI

**Abdimo'minova Dildora Oybekovna**

*TerDU talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada turkiy tillarning qadimgi yozma yodgorligi hisoblanmish Bilga xoqon hamda To'nyuquq bitiktoshlarining yaratilishi, o'rganilishi haqida so'z yuritilgan. Ulardagi so'zlar leksik-morfologik tahlil qilingan, bugungi kundagi lug'aviy ma'nosi jadval asosida berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bitiktosh, turk, yodgorlik, qabila, tängri, tuman, Tunuyugu, artuqi, qoraxitoy, enisey.*

Bilga xoqon bitiktoshi marmar bitiktosh bo'lib, Eltarish xoqonning o'g'li, Kulteginning og'asi asl ismi Xitoy yilnomalarida Mo'g'lon bo'lgan Bilga xoqon sharafiga 735-yilda qo'yilgan. 734- yilda Bilga xoqonni 50 yoshida o'z urug'laridan biri zaharlab o'ldiradi. Bu bitiktosh Kulteginnikidan 1 km janubi g'arbg'a o'rnatilgan bo'lib, ikkovi ham bir vaqtida 1889-yilda rus olimi N.M.Yadrinsev tomonidan Mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysida Ko'shkin Urxon daryosi bo'yidan topilgan. Bitikning nashri va tarjimalari ham aynan Kulteginniki bilan bir vaqtida amalga oshirilgan. Yodgorlik matni nemis, fransuz, ingliz, rus tillariga tarjima qilinib, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan. Faqat S.E. Malov alohida lekin boshqa bitiklar bilan birga nashr qilgan. Bilga xoqon bitiktoshining shakli ham Kulteginniki singari bo'lib, hajmi undan farq qiladi.

### Bilga xoqon bitiktoshining hajmi:

<b>Bo'yি</b>	<b>3m 45sm</b>
<b>Eni</b>	<b>1m 74sm</b>
<b>Qalinligi</b>	<b>72 sm</b>

Bitiktosh ag'darilib uch bo'lak bo'lgan va Kultegin bitiktoshiga nisbatan ko'proq nurab, bitigi ham ko'proq zararlangan. Bitik umumiy 80 satrdan iborat bo'lib:

**41 satr** - toshning yuz tomoniga;

**30 satr** - ikki yon tomonga (15 satrdan);

**7 satr** - orqa, xitoycha yozuv bor tomoniga;

**2 satr** - toshning taroshlangan ikki qirrasiga bitilgan.

Qolgan ikki qirrasidagi bitik o'chib ketgan, ammo bitiktoshning o'ng yoniga yozilgan.

Bilga xoqon bitiktoshidagi so'zlarni tahlil qilar ekanmiz unda biz uchun ma'nosi aniq va noaniq so'zlar bisyordir. Masalan: qag'an so'zi xoqon, bilga- dono ma'nolarini beradi va Bilga xoqon bu dono xoqon demakdir.

Endi bitiktoshdagi ot so'z turkumiga oid so'zlarni tahlil qilamiz:

<b>tängri</b>	<b>tangri</b>
---------------	---------------



bodun	xalq
og'ushim	qarindoshim
Su	lashkar
yag'i	dushman
adaq	oyoq
El	davlat
bäglär	bek
ebin-barqin	uy-joyini
yer sub	vatan
to'rug	hukumat
yutuzini	bekasini
yilq	chorva
arqish	karvon
kisi	kishi
alp	bahodir
arin	jangchi
tag'	tog'
qulqaq	qulqoq
yangaq	yanoq

Bilga xoqondagi otlarni tahlil qilar ekanmiz biz uchun tushunarsiz so'zlar deyarli kam. Yodgorlikda keltirilgan **tängri** so'zi ikki xil ma'noda qo'llangan. Ya'ni yaratgan Alloh hamda falak;

*Yay bolsar, uzä tängri – yoz bo'lsa, yuqorida falak;*

*Tängriteg tängri yaratmish Turuk Bilga qag'an sabim - Tangriday tangri yaratmish turk Bilga xoqon so'zim.*

Bitiktoshda otlardan tashqari sifat, son, fe'l so'z turkumi bilan ifodalangan so'zlar ham mavjud. Yodgorlikda toquz, sekiz, to'rt, bes, alti. yeti kabi sonlarni uchratishimiz mumkin. Tartib ko'rsatgichi -nc bo'lgan, biroq birinc ornida ilki, bastinqi so'zlari, ikkinc ornida esa ikinti, ikindi so'zlari qo'llanganligi bizga ma'lumdir va bitiktoshda

- ilki – birinchi(30)
- ikin - ikkinchi (30)
- ucunc – uchinchi (30)kabi tartib sonlarni uchratamiz.

Bilamizki, qadimgi turk tilida 2 xonali sonlar 2 yo'l bilan yuzaga kelgan.

1. Avval birlik aytilib, shu son qo'shilgan o'nlik emas, undan yuqoridagi o'nlik aytilgan:

- yeti yigirmi – o'n yetti (24)
- sekiz yigirmi – o'n sakkiz (24)
- iki otuz – yigirma ikki (25)
- yeti otuz – yigirma yetti (26)



2. Hozirgiga yaqin bir tartib bo'lib, o'nlikdan so'ng artuqi so'zi qo'yiladi:

- otuz artuqi bir – o'ttiz bir(29)
- otuz artuqi uch – o'ttiz uch (34)
- ay artuqi tort kun – bir oy-u to'rt kun (XI)

Bilga xoqon bitiktoshida ming "tuman"so'zi bilan ifodalanganining guvohi bo'lismiz mumkin:

*Tabg'ach ong tutuq bäs tumän su kälti - Tabg'ach o'ng tutuq 5 tumanlik(50ming) lik qo'shini bilan keldi( 25).*

Bitiktoshda qolgan so'z turkumlariga nisbatan fe'l faol qo'llangan.

yuguru	yugurib
topa	lashkar tortdim
buzdum	yengdim
altüm	oldim
kälti	keldi
sungushdim	jang qildim
ärti	aynitdi
ölurtum	o'ldirdim
tärilip	yig'ilib
kirti	qo'shildi
täzib bardi	qochdi
ittüm	jo'natdim
ögti	madh etdi
kälmädi	kelmadi
tikä berdim	tikib qo'ydim
ucha bardi	vafot etdi
qazg'anu bertüm	qozonib berdim
tikä bärtü	o'rnatib berdi
kälurti	keltirdi
bichdi	kesdi
yaratmish	yaratmish
ög'di	sano aytdi
mag' etdi	maqtov qildi
ätdim	tuzatdim
yaratdim	tikladim
tolg'atmang	hayajonlantirmang
sümadü	yetkazmadi
körtächi -sän	ko'rajaksan
bädiztim	naqshladim
bitidim	yozdim
kändim	kechdim



ucha bardi	uchib ketdi
------------	-------------

Bilga xoqon bitiktoshidagi fe'lga oid so'zlarni tahlil davomida qadimgi turkiy tilda ham so'zlar o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda qo'llanganligini bilib oldik. *Ucha bardi* so'zi o'z ma'nosida *uchib ketishni* bildirsa, ko'chma ma'noda *vafot etganlikni, insonlar orasida mavjud emaslikni* bildiradi. Tik so'zi ham *tikmoq* hamda *o'rnatmoq* ma'nolarini anglatadi.

To'nyuquq taxminan 645-726- yillar orasida yashagan Turk xoqonligining davlat arbobi va sarkarda bo'lgan. Ashida qabilasiga mansub. Turk zodagonlarining Xitoy imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'g'illaridan biridir. Uning ismi xitoy yilnomalarida Tunyuygu va Yuanchjen shakllarida uchraydi. U Tabg'achda tug'ilib, voyaga yetgan. Imperator saroyida ishonch qozonib, ma'muriy xizmatga yuborilgan. To'nyuquq 680-yillarda Turk xoqonligini Xitoy asoratidan qutqarib, uni yangitdan barpo qilishda Eltarish xoqonning eng yaqin maslahatchisi bo'lgan. U 3 xoqon: Qutlut Eltarish (680—691), Qapog'on (691—716) va Bilga xoqon (716—734) hukmronliklari davrida bosh vazir va lashkarboshi bo'lgan. Umrining katta qismini xoqonlikni mustahkamlash, turli qabilalar ahillagini saqlash, tashqi dushmanlarga qarshi kurash bilan o'tkazgan. Xitoy yilnomalarida xoqonlikning eng dono amaldori sifatida tilga olinadi. Ularda bayon qilinishicha, Bilga xoqonning Xitoy ichkarisiga yurish qilib, turkiy qavmlarni shaharlarda joylashishi, budda diniga o'tishi ularning jangovarligini yo'qotishini, o'troq yashash tarzi turkiylarga to'g'ri kelmasligini aytib, xoqonni bu yo'ldan qaytaradi. Bu esa To'nyuquqning nihoyatda aqli, tadbirkor va kelajakni ko'ra oladigan shaxs bo'lganligini ko'rsatadi. To'nyuquq lashkarboshi sifatida Xitoyning shimoliy-sharqidagi Shandun viloyatiga, Uzoq Sharqda qoraxitoylarga, Yenisey daryosi havzalaridagi qirg'izlarga, O'rxun va Selenga daryosi bo'ylaridagi o'g'uzlarga, Yettisuvdagi turkashlarga qarshi yurishlar uyushtiradi va ularni tobe etadi. U 719 yilda uyg'urlar, chinliklar va basmillarning Ikkinci Turk xoqonligiga qarshi yurishini to'xtatishga va Xitoy bilan 10 yillik sulh tuzishga muvaffaq bo'ladi. U o'limidan oldin o'zining hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi kitob barpo qildiradi. Ushbu yodgorlik qadimgi turk yozuvining ajoyib majmuasi hisoblanadi. Bitiktosh Ulan-Batordan 66 km janubi sharqdagi Bain Sokto manzilida 1897 yilda rus etnografi Yelizaveta Klemens eri Dmitriy Klemens bilan birga topgan va hozir ham o'sha yerda saqlanadi. Dastlab, bitiktoshning fotosurati, transkripsiysi va nemischa tarjimasi V. V. Radlov tomonidan 1899-yilda nashr ettirilgan. Yodgorlik matni dan(dat), ingliz, rus, fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan. O'zi To'nyuquqning xitoycha nomi "To'ng'ich javhar" degan ma'noni anglatgan. Bitik 62satrdan iborat bo'lib, janub va shimol tomonlari bir-biriga qaratib qo'yilgan ikkita to'rt qirrali tosh ustunga yuqorida pastga qarab yozilgan. Janubdagagi ustunning balandligi 170 sm, shimoldagisiniki 160 sm. Bitikning 1-7-satrlari toshlardan birining g'arbga, 8-17- satrlari janubga, 18-24- satrlari sharqqa, 25-35-satrlari shimolga qaragan tomoniga yozilgan. Bitikning 36-44-satrlari ikkinchi toshning g'arbiga, 45-50-



satrlari janubga, 51-58-satrlari sharqqa, 59-62-satrlari shimol tarafiga bitilgan. Bitiktoshda Turk xoqonligining qayta tashkil topishi, bu ishda Eltarish xoqonning xizmati, To'nyuquqning xoqonlik shakllanishi, yuksalishidagi, turli o'lka va qabilalarga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlardagi qahramonligi, vatanparvarligi batafsil bayon etilgan. Yodgorlik nafaqat badiiy-tarixiy asar sifatida, balki qadimiy toponimlar va etnografizmlarni o'rganish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Jumladan:

Tabg'ach	Xitoy
O'tukan	Oltoy va Xingan tog'lari oralig'idagi vodiy
Shantung	Shandun — Shimoliy-Sharqiy Xitoydagি provinsiya
Ko'gman	Sayan tog'lari
To'g'la	Tola daryosi
Oltun	Oltoy
Yinchu ug'uz	Sirdaryo
Temir Qapig'	Darband-Hisor tog'idagi dovon

kabi o'lka va joy nomlari, turk, o'g'uz, qitaniy, turgash, qirg'iz singari qabila nomlari uchraydi.

Bitiktoshdagi qag'anqaru, tabg'acqaru so'zlarini tahlil qilsak,

Qag'an+qaru , tabg'ac+qaru xoqonga, xitoya ma'nolarini beradi va bu yerdagi qaru jo'nalish kelishigining shaklidir. Shu kabi tushum kelishigi bilan ifodalangan so'zlarni ham ko'rishimiz mumkin:

- bodunug' = bodun+ug' (xalqni)
- sug = su+g (lashkarni)
- qag'anlig'ig = qag'an+lig'+ig (xoqonlikni)

Mazkur bitiktoshdagi bulg'anc, tarqanc fe'llari -nc fe'l yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan bo'lib, bulg'angan, tarqoq ma'nolarini beradi. Qad- xon, yeme-ham, qazg'antuq – muvafaqqiyat, yaraq- qurol, urun- oq, quduz- juvon, idi-ega, on-o'n ma'nolarida keladi.

To'nyuquq bitiktoshida qo'llanilgan olmoshlar:

- Bän-men (kishilik olmoshi)
- ôzum- o'zim(o'zlik olmoshi)
- benek ärtim- men o'zim(ta'kidni kuchaytirish uchun)
- biz – biz(kishilik olmoshi)
- ol – ôsha(ko'rsatish olmoshi)
- anta – undan(ko'rsatish olmoshi)
- ancha – shunday(ko'rsatish olmoshi)
- bu – bu (ko'rsatish olmoshi)
- Qachan – qachon(so'roq olmoshi)



Olmoshlar hozirgi o'zbek tilidagi singari egalik, ko'plik, kelishik qo'shimchalarini olgan ya'nii tuslangan; bani - meni, sani - seni, banga- menga.

Qag'anî alp ermis, ayg'uchisi bilgä ermis, *qachan* ängirsär. Bizni ölturtechi kuk, temish - Xoqoni qahramon ekan, maslahatchisi alloma ekan, *har qanday* qilib bizni o'ldiradigan ko'rindi, depti. 29-30-satrlarda keltirilgan ushbu gapdagi qachan so'roq olmoshi bu yerda aynan o'z vazifasini emas balki belgilash olmoshi vazifasini bajaryapdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdurahmonov, Rustamov – “Qadimgi turkiy til”. Toshkent “O'qituvchi” 1982
2. N. Rahmonov – “O'zbek tili tarixi”. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2009
3. Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov – “O'zbek tilining tarixiy grammatikasi”. Toshkent – 2008
4. Internet saytlari:  
[wikipedia.uz](http://wikipedia.uz)  
[tsuull.uz](http://tsuull.uz)  
[ziyouz.com](http://ziyouz.com)  
[fayllar.org](http://fayllar.org)  
<https://portal.guldu.uz>